

## “MUBAYYAN” VA “HIDOYA” ASARLARIDA FIQHIY MASALALARNING YORITILISHI MUQOYASASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12738110>

**Gulruh Kenjaboy Mirzo qizi**

*ToshDO'TAU I-kurs doktoranti*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Muabayyan” asarida bayon etilgan fiqhiy masalalar va “Hidoya” matnlarining uygʻun vafarqli jihatlari haqida maʼlumot beradi.*

### **Kalit soʻzlar**

*E'tikof, mustahab, roʻza, hukm, sunnat, fuqaho, kafforat.*

“Mubayyan” va “Hidoya” asarlarida fiqhiy masalalarning yoritilishida oʻxshash va zohiran farqli jihatlari bor boʻlib, baʼzi fiqhiy masalalarning yoritilishini taqqoslashni roʻzaning qazosi va kafforati borasidagi hukmlar bayonidan koʻrishni boshlaymiz:

Ramazon roʻzagʻa qilib niyyat, qasdi iftor qilsa ul fursat;  
Vaty kilsa keyinga, ilgariga, vatiy qildursa har iki yeriga;  
Boʻlsinu boʻlmasun agar inzol, mufsiidi savmdur bular, yod ol!  
Yesa, yo ichsa qasd birla gizo, ushbu yer nima garchi boʻlsa davo,  
Lozim oʻlgʻay qazo, kafforati ham, dey bularni eshitgil, ey hamdam.  
Sen qazo roʻza ichra bil mundoq, bordur ul kuncha evaz tutmoq.  
Men kafforatini aytayin tut yod, lozim ar boʻlsa, banda qil ozod;  
Banda gar muslim oʻlsun, ar kofir, xoh xotun bu banda, xohi er.  
Gar sanga istitoʻati iʻtoq boʻlmasa, sharʻ ahli soʻziga boq:  
Oltmish kun tamomi bul soyim, ora ochmay bu iki oy doyim.  
Oltmish kunda boʻlmasun ramazon, yana besh kunki, bor harom oʻlgʻon,  
Bu iki oy ogʻiz ocharni unut, ori, ochilsa yana boshdin tut.  
Ojiz oʻlsang bu roʻza tutmoqdin, tuygʻor ul vaqt oltmish miskin  
Ki, berursen – maviz yo bugʻdoy, burgasen nisf soʻ, men aytoy  
Senda gar boʻlsa arpa yo xurmo, berguluk munda soʻ boʻldi sango  
Yoʻqsa, zikr aylaganni qismat kil, qiymatin ham beray desang, bergil”<sup>5</sup>.

<sup>5</sup> M.Kenjabek. Mubayyan va nasriy bayoni, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent.:2014, -B. 25

Baytlarning mazmuni quyidagicha: Ramazon ro‘zasiga niyat qilib, u vaqtda iftorni (ro‘zani ochishni) qasd qilsa; oldinga, orqaga vatiy qilsa, yoki har ikki bo‘lmasin, bular ro‘zani buzuvchi narsalardir, yod ol! Qasddan biror g‘izo yesa yoki ichsa, ushbu yeydigan narsasi garchi davo bo‘lsa ham, qazo(sini tutish) ham, kaforatini berish ham lozim bo‘ladi, ey hamdam! Sen bilki, qazo ro‘zasida o‘sha (tark bo‘lgan) kun miqdoricha badalini (bir kunga bir kun, o‘ttiz kunga o‘ttiz kun) tutmoq bordir (qazo ana shudir).

Endi kafforatini aytayin, yodda tut: agar (kafforat) lozim bo‘lib qolsa, qul ozod qil. qul xoh musulmon bo‘lsin, xoh kofir, xoh erkak bo‘lsin, xoh ayol (farqi yo‘q).

Agar qul ozod qilishga qodir bo‘lmasang, shariat ahlining so‘ziga boq: oltmish kun to‘liq-to‘kis ro‘zador bo‘l, bu ikki oyda orani uzmasdan bardavom ro‘za tut. Bu oltmish kunda ramazon bo‘lmasin (chunki, ramazon ro‘zasi zotan farzdir), yana (ro‘za tutish) harom bo‘lgan (man etilgan) besh kun (ikki hayit va uch kun – tashriq kunlari u oltmish kunning ichida bo‘lmasin).

Bu ikki oy og‘iz ochishni unut, ha, agar ro‘za ochilsa, yana boshdan tut. Bu ro‘zani tutmoqdan ojiz bo‘lsang, u vaqtda oltmish miskinni to‘ydir. (Bu to‘ydirish shuki,) mayiz yoki bug‘doy berasanmi, yarim sob berasan. Agar senda arpa yo xurmo bo‘lsa, bunda beradigan (o‘lchov)ing so bo‘ldi. Yo‘qsa, zikr etilgan narsani taqsim qil, qiymatini beraman desang ham beraver. Agar kishiga kafforat lozim bo‘lsa, uni bermasdan, yana ro‘zasini yesa, bilki, har qancha ro‘za tutib, og‘iz ochsa, uning uchun oxir-oqibatda bir kafforat bor.

Ey do‘st! Agar kafforatni berib, yana har ro‘zada og‘iz ochiq bo‘lsa, yana bo‘ynida bir kafforat (bor deb) ko‘r, har necha (kafforatni) bersa, (ahvol) yana shundaydir. Kishiga kafforat lozim bo‘lsa, o‘sha holatda bemor qiluvchi deb bil (bu ikki holatda kafforat bo‘yindan yoki hayzli bo‘lsa, bu ikki holatni kafforatni soqit bo‘ladi); masala ushбудir.

“Hidoya”da qazo va kafforat borasida shunday hukmlar kelgan: “Agar ro‘zador u bilan oziqlanadigan yoki davolanadigan bir narsa yesa yoki ichsa, unga ham ro‘zaning qazosi, ham kafforati vojib bo‘ladi. Shofe’iy rahmatullohi alayh: «Unga ro‘zaning kafforati vojib bo‘lmaydi. Chunki (Ramazonda ro‘za bo‘lgan holda) jinsiy aloqa qilgandagina, kishiga ro‘za kafforati vojib qilingan», deganlar, Qiyos bu fikrga xilofdir (qiyosga ko‘ra, jinsiy aloqa qilgani uchun ham kafforat vojib emas). Chunki (chin dildan) tavba qilish bilan gunoh ko‘tariladi. Shunday ekan, (Rasululloh sollallohu alayhi vasallam a‘robiyga aytgan so‘zlari uning o‘zigagina xos bo‘lgani uchun) undan boshqasiga qiyos qilinmaydi. (A‘robiyning hikoyasi pastroqda kengroq yoritiladi). Bizga ko‘ra, ro‘zaning kafforati, Ramazon oyida to‘liq ravishda (ya‘ni, xam shaklan, ham ma‘nan) ro‘zani buzish bilan jinoyat

sodir etganda vojib bo‘ladi. Bu yerda esa (yeyish yoki ichishlik bilan to‘liq) ro‘zani buzish amalga oshdi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Ramazonda ro‘zasini buzgan kishiga, kafforatiga qul ozod etishni (buyurishlaridan) bilinadiki, tavba qilishning o‘zi jinoyat uchun kafforat bo‘la olmaydi.

So‘ngra, Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: Ramazon ro‘zasining kafforati, zihorning kafforati kabidir. Yuqorida rivoyat qilgan hadisimizga asosan. Va yana, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga bir a‘robiy kelib: «Halok bo‘ldim va halok qildim, ey Rasululloh», dedi. Rasululloh: «Nima qilding?» deb so‘radilar. U: «Men Ramazonning kunduz kunida (bilib turib) xotininga qasddan yaqinlik qilib qo‘ydim», dedi. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Bir qul ozod qilgin», dedilar. A‘robiy «o‘zimdanda boshqa hech kimsaga ega emasman», dedi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Ikki oy ketma-ket ro‘za tutgin», dedilar. U: «Boshimga tushgan falokat ro‘za tufayli kelmadimi?» dedi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Unda oltmishta miskin-bechorani ovqatlantirgin», dedilar. U: «Kuchim yetmaydi», dedi. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam unga bir savat xurmo olib kelishlikni buyurdilar (bir savatda o‘n besh so xurmo bo‘ladi, deyilgan). Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «(Buni olib) miskinlarga tarqatgin», dedilar. A‘robiy: «Allohga qasamki, Madinaning shu ikki qora qoyasining orasida mendan va mening oilamdan ko‘ra muhtojroq kishi yo‘q», dedi. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «(Unday bo‘lsa) sen va oilang yeyaveringlar. Bu sengagina joizdir, sendan so‘ng hech kimsaga joiz emas», dedilar. Ushbu Shofe‘iy rahmatullohi alayhning: «Kishi kafforat ro‘za tutishda tartibga rioya qilish majbur emas, (ya‘ni, kishi shu uch narsadan birini – qul ozod qilish yo oltmish kun ketma-ket ro‘za tutish yoki oltmishta miskinga ovqat yedirishdan qay birini xohlasa, qilishi mumkin), degan so‘zlariga va Molik rahmatullohi alayhning: «Kafforat ro‘zasini ketma-ket ulab tutish shart emas», degan so‘zlariga qarshi dalildir”<sup>6</sup>.

Guvohi bo‘ldikki, “Mubayyan” o‘zining soddalik uslubiga sodiq qolgan holda avval ham qazo, ham kafforat vojib bo‘ladigan o‘rinlarni birma-bir bayon qildi, keyin esa kafforat va uni ado etish uslublari haqida ma‘lumotlar berilgan. “Hidoya”dan esa mazhablar orasidagi ixtiloflar, kafforat vojib bo‘lmaydi, deydiganlarga raddiyalar ham joy olgan.

Endi e‘tikof borasidagi hukmlar bilan tanishib chiqamiz. “Mubayyan”da e‘tikofning ta‘rifi va unga oid hukmlar quyidagicha kelgan:

“Ramazon oyi, bilki, sunnatdur: so‘nggi ashrida e‘tikof o‘ltur.

<sup>6</sup> “Hidoya” asari 2-juz. Burhoniddin Marg‘inoniy – Toshkent: .2022.- B. 76

Ushbu sunnat muakkadadur, bil, lek muni 'alal-kifoya degil.  
E'tikof ichra shartdur ro'za, bordur aning aqalli yak ro'za.  
Andakim masjidi jamo'atdur, e'tikof anda, bilki, sunnatdur.  
Qilding ar e'tikofga niyyat, chikmagil be zarur ul fursat.  
Chiqsang andin qazoyi hojat uchun, yo vuzu naqzida tahorat uchun,  
Qilur ishingni chunki qilding, bil, mu'takafga darangsiz kirgil.  
Uzrsiz so'ate darang etmak, mubtili e'tikofdur, beshak.  
Vaty ham e'tikof mubtilidur, ushbular shar' ahlining tilidur.  
Kuchmoq, o'pmoq gar o'lsa shahvatlik, e'tikof ichra bor harom bu shik.  
Kilsa el lozim e'tikof o'ziga, turmasa yana bu degan so'ziga,  
Favt bo'lgon kunig'a fidya berur. masalaye shar' ichra mundoq erur" <sup>7</sup>.

Baytlarning ma'nosi: Bilki, ramazon oyida (e'tikof) sunnatdir: uning oxirgi o'n kunligida. Bil, ushbu sunnat muakkadadir, lekin buni 'alal-kifoya (ya'ni, sunnati kifoya) degil. (Bir shahardan bir kishi o'tirsa, kifoya, butun shahar xalqidan vabot ko'tariladi). E'tikof vaqtida ro'zador bo'lish shartdir, u (e'tikof)ning eng ozi bir kundir. (Nafl e'tikofning eng ozi esa bir soatdir.) Jamo'at masjidida (ya'ni, jum'a o'qiladigan masjidda) e'tikof o'tirmoq sunnatdir.

Agar e'tikofga niyat qilsang, u vaqtda zaruriyatsiz (masjiddan) chiqma. Undan qazoyi hojat uchun chiqsang, yoki tahorat buzilib, yangi tahorat olish uchun chiqsang, qilar ishingni (tahoratingni) qilib bo'lishing bilan paysalga solmasdan tez e'tikofxonaga kir. Uzrsiz bir soat hayallamoq, shak-shubhasiz, e'tikofni botil qiladi.

(Jufti halol bilan) jinsiy muomala ham e'tikofni botil qiluvchidir. Ushbular shari'at ahli (imom va fuqaholari)ning so'zidir.

Burhoniddin Marg'inoniy e'tikofga oid hukmlarni quyidagi tarzda bayon qilganlar: "Quduriy rahmatullohi alayh aytadi: "E'tikof mustahab amaldir". To'g'risi, u sunnati muakkadadir. Chunki Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Ramazon oyining oxirgi o'n kunligida e'tikof o'tirishni o'zlariga vazifa qilib olganlar. Vazifa qilib olishlari uning sunnat amal ekaniga dalildir.

E'tikof bu kishi ro'zador bo'lgan holda e'tikof niyati bilan masjidda bir muddat turishdir. Bir muddat turish e'tikofning ruknidir. Chunki masjidda bir muddat qolish kishining e'tikofda ekanini bildiradi. Shunday ekan, e'tikof faqat masjiddagina ado etiladi. Bizga ko'ra, ro'zador bo'lish e'tikofning shartidir. Bu hukm Shofe'iy rahmatullohi alayhga xilofdir. Niyat ham boshqa ibodatlardagi kabi e'tikofda shartdir. Shofe'iy rahmatullohi alayh: «Ro'za o'zi (Mustaqil) ibodat bo'lib, u o'zi alohida tamaldir. Shuning uchun, boshqa ibodatga shart bo'lmaydi

<sup>7</sup> M.Kenjabek. Mubayyan va nasriy bayoni, "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent.:2014, -B. 25

(ya'ni, boshqa ibodatlariga shart bo'lishi uchun ro'za asl emas, tobe bo'lishi kerak)», deganlar.

Bizning dalil: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning "Ro'zasiz e'tikof bo'lmaydi", – degan so'zlaridir. Bu to'g'rida dalil bo'lib turgan paytda qiyos qilish qabul etiladigan ish emas. So'ngra, (kishi qasam yoki nazr qilish orqali o'z zimmasiga vojib qilib olgan) e'tikofning durust bo'lishi uchun bir rivoyatda ro'zador bo'lishi shart, deyilgan. Nafl (ya'ni, sunnat) bo'lgan e'tikofning durust bo'lishi uchun niyatning shart bo'lishi, biz rivoyat qilgan hadisning zohiriy ma'nosiga ko'radir. Bu qavlni Abu Hanifa rahmatullohi alayhdan Hasan ibn Ziyod rahmatullohi alayh rivoyat qilganlar. Mazkur rivoyatga ko'ra, e'tikofning muddati bir kundan kam bo'lmaydi. (Mazkur hukm) «Asl» (ya'ni «Mabsut»)ning rivoyatiga ko'ra, e'tikofning eng kami bir soatdir. Bu hukm Muhammad rahmatullohi alayhning ham so'zlaridir. Shunda e'tikof ro'zasiz bo'ladi. Chunki nafl ibodat qulaylikka asoslangan. Bilasanku, kishi nafl namoz o'qiyotganida turishga qodir bo'la turib, o'tirib namoz o'qishi ham joizku! «Asl» ("Mabsut")ning rivoyatiga ko'ra, kishi e'tikofda o'tirishni boshlab, so'ng uni buzib yuborsa, unga e'tikofning qazosi vojib bo'lmaydi. Chunki e'tikofning lum miqdori yo'q bo'lib, uni yarmidan buzib yuborish bilan ibodat botil sanalmaydi. Hasan ibn Ziyod rahmatullohi alayh rivoyatiga ko'ra, e'tikofli odamga buzgan e'tikofining qazosi vojib bo'ladi. Chunki u ro'za singari bir kun (miqdori) bilan o'lchab qo'yilgan"<sup>8</sup>.

Ro'zaga oid hukmlar tugaganidan so'ng, ikkala kitobda ham Islomning beshinchi rukni hisoblangan haj haqidagi tafsilotlar bayoni boshlanadi. Avvalida, hajning farz etilishi, uning vojiblari, ruknlari, miyqotlar, ehrom bog'lash kabi hukmlar keladi. Keyin "Mubayyan" da umraning bayoni beriladi:

"Umrani sunnati muakkada bil, vaqti lekin erur aning bari yil.  
Kimki qorin emas, anga besh kun umra makruhdur, muni bilsun.  
Arafa kunidur burung'isi, bil, so'nggi tashriq birla besh sanagil.  
Umraning rukni ikidur, sen bil, har ikisini aytay, eshitgil:  
Bir tavof ila yetti shavt ado, yana sa'y et Safov u Marva aro.  
Umraning sharti dagi iki emish, qaysilardur, bil, emdi bu iki ish.  
Bilki ehromdur bulardin bir, yana birisi halq yo taqsir.  
Mu'tamir halq qilsa yo taqsir, berur ehromig'a bu ish ta'bir.  
Mu'tamir Makkag'a yetishganda, qilur ishni bil, nedur anda? -  
Kirsun andaki Bobi Ibrohim derlar oni haj ahlidin har kim.

<sup>8</sup> "Hidoya" asari 2-juz. Burhoniddin Marg'inoniy – Toshkent: .2022.- B. 127



Har qachon kilsa istilomi hajar, talbiya qat'iy ushbu vaqt anga bor"<sup>9</sup>.

Ya'ni: Umrani sunnati muakkada deb bil, lekin, uning ado etish vaqti butun yil bo'yidir. Kimki qorin (qiron haji qiluvchi) bo'lmasa, unga besh kun umra makruhdir, buni bilsin. Birinchisi, arafa kuni, so'nggi (to'rt) tashriq kuni bilan besh kun sana. Umraning rukni ikkitadir, sen bil, har ikkisini aytay, eshit: biri yetti shavt (aylanish) bilan ado qilinadigan tavof(i Ka'ba)dir, yana biri Safo va Marva orasida (yetti bor) sa'y qilishdir. Umraning sharti ham ikkitadir, endi bu ikki ish qaysilar ekinini bilib ol: bilki, bulardan biri ehromga kirishdir, ikkinchisi halq (sochni qirish) yoki taqsir (sochni qisqartirishdir). Mu'tamir (umra qiluvchi) halq qilsa (sochni qirdirsa) yoki taqsir qilsa (sochni qisqartirsa), bu ish ehromdan chiqishga sabab bo'ladi. Mu'tamir (umra qiluvchi) Makkaga yetganda, unda qiladigan ishi nimadir, bilib ol: U (Masjidi Haromga) o'sha yerdagi Bobi Ibrohimdan (Ibrohim alayhissalom eshigidan) kirsin. Uni haj ahlidan har kim shunday (Bobi Ibrohim) deb ataydi. Har qachon Hajar ul-asvadni istilom qilsa (o'psa yoki siypasa), shu vaqtda talbiya aytishni to'xtatishi kerak.

Yuqorida "Mubayyan" da keltirilgan umraga oid ahkomlarni ko'rib chiqdik. Zahiriddin Muhammad Bobur kitobning avvalida hukmlarni qanday qilib oson va yengil tarzda sharhlagan bo'lsa, kitobning oxirgi qismlarida ham xuddi shu tarzda davom etgan. Biroq, "Hidoya" da umraga oid ma'lumotlar haj kitobi bobida uchramaydi. "Hidoya" da hukmlar, fikrlar birmuncha murakkabligini ham hisobga olsak, muallif deyarli barchaga ma'lum umraning tafsilotlariga to'xtalmagan bo'lishi mumkin.

Xuddi shu holat hajning sunnatlari borasida ham bo'lgan:

"Hajda, bilgilki, to'rttur sunnat, tut quloq, barchasiga aytay ot.

Muni ofoqiy aylasun ma'lum, sunnat o'ldi anga tavofi kudum.

Makkaga kirgach-o'q tavof qiling, bu dag'i yetti shavt bo'ldi, biling.

Yana bir sunnati haj o'ldi ramal, shavt uch bo'lg'uncha sen et bu amal

Bu amal qaysidur, men aytay, bil, tebrat ilkingniyu taharruk qil.

Kimki avvalgi tavf qilsa ramal, o'zgada ehtiyoj emas bu amal.

Sa'y qilg'ilki, sa'y sunnatdur, yugururga, eshitki, bu otdur.

Yugururungda Safovu Marva aro, anda bu sa'yni ketur barjo.

Anda milayni axzarayn durur, ushbu ikining arosida yugur.

Sunnat o'ldi bu, tosh otar ayyom kechalar bo'l Miynoda ul hangom.

Ushbu zikr aylagandin o'zgalari mustahab yo adabtur o'zga bari"<sup>10</sup>.

<sup>9</sup> M.Kenjabek. Mubayyan va nasriy bayoni, "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent.:2014, -B. 261

Ya'ni, bilgilki, hajda to'rtta sunnat amal bor, quloq tut, barchasini nomlab o'tayin. Ofoqiy, hajga chetdan kelgan kishi bilib olsinki, unga tavofi qudum qilmoq (Ka'batullohga qadami yetgani shukronasiga tavof qilmoq) sunnatdir. Makkaga kirgan zahoti tavof qiling, bu ham yetti shavtdan (yetti aylanishdan) iboratdir, biling. Hajning yana bir sunnati ramaldir (tezlab yurishdir), uch shavt bo'lguncha bu amalni qil. (Ramal faqat uchta aylanada sunnat, iztibo' esa yetti aylananing hammasida sunnatdir. Bu amal (ramal) qaysidir, men aytay, bilib ol, (tavof vaqtida ko'krakni kerib, qo'llarni tashlab-tashlab, oyoqlarni yaqin-yaqin tashlab,) qo'lingni qimirlatib, harakat qil (polvon yurish qil), kimki birinchi tavofda (birinchi shavtda) ramal qilsa, boshqasida bu amalga hojat yo'q. (Yana) sa'y qil, chunki sa'y sunnatdir, yugurib (tezlab) yurish shunday (sa'y deb) ataladi. Safo va Marva orasida yugurganingda bu sa'yni bajo keltir. U yerda (Safo va Marva orasida) milayni axzarayn – ikki yashil ustun bor, ushbu ikkisining orasida yugur. (Yana) tosh otish kunlarida kechalari (tashriq kechalari) Minoda bo'l, bu sunnatdir. Ushbu zikr qilinganlardan boshqalari hammasi mustahab yoki adablardir.

Yuqorida ham ta'kidlaganimiz kabi "Mubayyan" shariatning ahkomlarini o'rganmoqchi bo'lganlar uchun boshlang'ich ma'lumotlarni beruvchi manbadir. Shu boisdan ham ushbu kitobda fiqh va aqidga oid eng zarur va eng yengil hukmlar bayon qilingan. "Hidoya" esa faqat hanafiy fiqhini puxta o'rganmoqchi bo'lganlar uchun mo'ljallanganligi bois unda asosiy hukmlardan tashqari eng nozik nuqtalar ham atroflicha yoritilgan. Bobur "Mubayyan" asarini yozishda o'sha vaqtlarda ham imom Abu Hanifaning mazhabini to'la-to'kis o'rganishdagi qimmatbaho asar hisoblangan "Hidoya"ga suyanganligi bois ham o'xshash jihatlar talaygina, farqlar esa sanoqli. Ikki kitobni o'rganib chiqqan odam sezishi mumkin bo'lgan eng asosiy farq "Hidoya"ning mufassalligi va murakkabligi, "Mubayyan"ning esa mo'jaz va yengilligidir. Chunki Bobur faqatgina islomning asosiy besh rukniga oid hukmlar bayoni bilan kifoyalangan. Yana bir farqli jihati, "Hidoya"da mazhabimiz olimlarining turli fikrlari, boshqa mazhablarga raddiyalar ham bor bo'lsa, "Mubayyan"da faqatgina fatvo berilgan va insonlar amal qilib keladiganlarini yoritish bilan kifoyalangan. Va "Mubayyan"ning e'tiborga molik yana bir jihati, uning nazm uslubida bitilganidir. Aslida fiqhni puxta bilib, asar yozish juda katta mahoratdir. Har qanday mavzuda bo'lsin, nazm uslubida yoza olish ham yana bir mahoratdir. Zahiriddin Muhammad Bobur "Mubayyan" asari orqali o'zida ana shu ikki mahoratni jamlaganining yaqqol misolidir.

<sup>10</sup> M.Kenjabeek. Mubayyan va nasriy bayoni, "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent.:2014, -B. 310

Nima bo‘lgan taqdirda ham, mana, bu ikki asar yozilganiga necha yuz yillar o‘tgan bo‘lsa ham, hozirga qadar o‘z qadr-qimmatini, ahamiyatini yo‘qotmagan. Ko‘p yillardan beri xalqimiz shariat ahkomlarini o‘rganishda ushbu ikki asardan ham keng foydalanib keldi. Hozirda ham “Hidoya” madrasa va ma’hadlarda eng asosiy manba sifatida o‘rganiladi. “Mubayyan” esa ham mo‘tabar diniy manba, ham turkiy adabiyotining go‘zal namunasi sifatida ardoqlanib kelinmoqda.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Zahiriddin Muhammad Bobur / “Mubayyan va nasriy bayoni”.-T: Sharq-2014
2. Zahiriddin Muhammad Bobur / “Risolai Volidiyya”.-T: Sharq-2014
3. Abdulhay Lavkhnaviy “Nuzhat ul-xavotir” ( “Xotiralar sayri” ). Lubnon / Bayrut , “ Dorul Ibn Hazm “ nashriyoti , 1999 yilda nashr bo‘lgan.
4. “Urdu doirai ma‘orifi islomiya” ensiklopediyasi, Panjob universiteti nashri. h.1392, m.1972 yil. 3-jild.
5. Mirzo Kenjabek, “Bobur Mirzo – buyuk faqih” // “Yer yuzi” jurnali, 2014-yil, 2 (6)-son, 16-bet
6. Hasanxo‘ja Nisoriy. “Muzakkiri abob” (“Do‘stlar yodnomasi”). Fors tili-dan Ismoil Bekjon tarjimasi. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.
7. “Hidoya” asari 2-juz. Burhoniddin Marg‘inoniy – Toshkent: .2022.